



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 28-avgust, payshanba,
98 (24.124)-son

O'zbek xalq
maqoli

Elga
qo'shilganing
ko'ngli
to'q

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

Yaponiya tashqi ishlar vaziri Samarqandga keldi

Rasmiy tashrif bilan yurtimizga kelgan Yaponiya tashqi ishlar vaziri Takeshi Iwaya boshchiligidagi delegatsiya 26-avgust kuni Samarqand shahrida bo'ldi.

Mehmonlarni Samarqand xalqaro aeroportida O'zbekiston Tashqi ishlar vaziri o'rinbosari B.Usmonov va viloyat hokimligi mas'ullari kutib oldi.

Yaponiyalik diplomat dastlab "SamAvto" zavodida bo'lib, ishlab chiqarish jaryonlari bilan tanishdi. Mazkur korxonada 2007-yildan buyon ISUZU Motors Ltd kompaniyasi va Itochu korporatsiyasi bilan hamkorlikda "ISUZU" shassis asosida avtobuslar va yuk mashinalari, maxsus texnikalar ishlab chiqarilmoqda. Zamonaviy, xalqaro standartlarga javob beradigan mazkur texnika vositalari ichki bozor bilan birga xorijga eksport qilinadi.

Shundan so'ng delegatsiya Samarqand tumanidagi "Bobur agro innovatsiya" fermer xo'jaligida bo'ldi.

Bu yerda Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) ko'magida ushbu davlatdan keltirilgan olma navlari parvarishlanmoqda.

Takeshi Iwaya fermer bilan suhbat chog'ida xo'jalikda olma va uzum yetishtirishning o'ziga xos tomonlari, qo'llanilayotgan innovatsion uslublar bilan qiziqdi. Mahalliy va xorijdan keltirilgan olma navlarining turli xil ob-havo sharoitiga moslashuvchanligi va kasalliklarga chidamliligi, sifati, xaridorgiriligiga e'tibor qaratildi.

Yaponiya tashqi ishlar vaziri Samarqanddagi tarixiy-madaniy yodgorliklarda ham bo'lib, xalqimizning boy tarixi va madaniyati, ajdodlarimizning bunyodkorlik salohiyati haqida ma'lumotlarga ega bo'ldi.



Mustaqillik tantanalari boshlandi

Viloyatimiz shahar va tumanlarida, mahallalarda Vatanimiz mustaqilligining 34 yilligi keng nishonlanyapti. Sana munosabati bilan turli tadbirlar, konsert dasturlari, intellektual o'yinlar hamda sport musobaqalari o'tkazilmoqda. Yangi bino va inshootlar foydalanishga topshirilmoqda.

Past Darg'om tumanida O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 34 yilligi oldidan 34 ta ijtimoiy-iqtisodiy obyekt foydalanishga topshirildi.

Jumladan, Kamolot mahallasida "Samirjon go'sht mahsulotlari" MChJning qiymati 3,2 million dollarlik "Parrandachilik kushxonasi va muzlatkichli omborxona tashkil etish" loyihasi ishga tushirildi.

Mazkur loyiha doirasida 60 ta yangi ish o'rni yaratilgan bo'lib, yiliga qiymati 13,8 milliard so'mlik 9,2 million dona parranda so'yilib, ichki

bozorga yetkazib beriladi.

Tumanning Paxtakor mahallasida 12 milliard so'm evaziga, 500 o'rinni muhtasham bazmgo'ishga tushirildi. Bu yerda tuman hokimligi va tadbirkorlar tashabbusi bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning 500 nafarga yaqin vakillari uchun bayram dasturxonini yozildi. Ehtiyojmand oilalarning 34 nafar farzandi xatna to'yi o'tkazildi.

Urgut tumanida eng ulug', eng aziz bayramga bag'ishlangan tadbirlar ko'tarinki ruhda o'tkazildi. Asosiy bayram tantanalari tuman markazidagi istirohat bog'ida hamda To'rtko'l mahallasida bo'lib o'tdi.

Tadbirlarda tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga munosib hissa qo'shib kelayotgan faollar, o'qish va izlanishda tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan iste'dodli yoshlar munosib taqdirlandi.

Tumanning Quyi Torinj mahallasida joylashgan 5-umumta'lim maktabi uchun qo'shimcha bino qurilib, foydalanishga topshirildi. Maktabda ming nafarga yaqin o'quvchi ta'lim oladi. 3 qa-

vatli, 12 ta sinfxonadan iborat mazkur qo'shimcha bino 330 o'quvchiga mo'ljallangan.

Qo'shrabot tumanida ham Vatanimiz mustaqilligining 34 yilligi tantanali qarshi olinyapti. "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" shiori ostida o'tkazilayotgan tadbirlar olis hudud aholisiga haqiqiy bayramona kayfiyat bag'ishladi.

Bayram arafasida tumanning Zarkent qo'rg'onida Navoiy kon-metallurgiya kombinatining Janubiy kon boshqarmasi bo'linmalarida mehnat qilayotgan ishchi-xodimlar va ularning oila a'zolarining yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida 32 xonadonli ko'p qavatli turarjoy binosi foydalanishga topshirildi. Hududda bolalar maydonchasi ham bunyod etilgan.

Tumanning asosiy bayram tadbirlari "Yoshlar sayilgohi"da gala-konsert bilan davom etdi. Unda poytaxtdan kelgan taniqli xonadamlar, viloyat va tumanda ijod qilayotgan iste'dodli san'atkorlar Vatan, tinchlik va shukronalik madh etilgan kuy-qo'shiqlar ijro qildi.

To'liq SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti intellektual tizimlar va kompyuter texnologiyalari fakultetining yangi o'quv binosi foydalanishga topshirildi. Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov, Samarqand davlat universiteti rektori Rustam Xolmurodov, viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari rahbarlari professor-o'qituvchilar ishtirok etdi.

Universitetning yana bir yangi binosi

Tadbirda Mustaqilligimizning 34 yilligi arafasida respublikadagi 18 ta oliy ta'lim muassasasida 9980 o'rinni yangi talabalar turarjoyi hamda ming o'rinni o'quv binolari bir vaqtda foydalanishga topshirilishiga start berildi.

Intellektual tizimlar va kompyuter texnologiyalari fakultetining yangi binosi zamonaviy va sharoqona me'morchilik an'analari asosida bunyod etilgan bo'lib, to'rt qavatdan iborat.

Muassasada axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, amaliy matematika yo'nalishlarida bakalavr, magistr, doktorantlar tayyorlash uchun barcha sharoitlar yaratilgan, deydi fakultet dekani Fayzul-Nazarov. Bino ramziy ma'noda Mirzo Ulug'bek bobomizning rasadxonasiga qiyoslangan. Yorug' va shinam o'quv xonalari, kutubxona hamda ilmiy-amaliy laboratoriyalar o'qituvchi va tadqiqotchilar ixtiyorida. 2025-2026-o'quv yilidan ushbu zamonaviy binoda ming nafar talabamiz o'qishni boshlaydi.

Prezidentimizning 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida mamlakatimizning sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishiga erishish vazifasi belgilangan.

Shunga ko'ra, fakultetda sun'iy intellekt ilmiy laboratoriyasi tashkil etilgan bo'lib, talabalar, yosh tadqiqotchilar ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilishga qaratilgan ilmiy ishlanmalar va yangi loyihalar ustida ish olib bormoqda. Shuningdek, kibernetika, matematik modellash, robototexnika laboratoriyalari ham mavjud.

Laboratoriyamizda turli sohalariga yo'naltirilgan sun'iy intellekt integratsiyasi bilan ishlash imkoniyati

mavjud, deydi ilmiy tadqiqotchi Munis Hamdamov. Xususan, ijtimoiy-iqtisodiy soha, tibbiyot, yo'l harakati xavfsizligi sohalarida tadqiqot olib boryapmiz. Byuk Britaniyada sun'iy intellekt bo'yicha magistraturada o'qib keldim. Hozirda avtohalokatlarining oldini olish maqsadida haydovchilar uchun avtomobillarga sun'iy intellekt integratsiya qilgan kamera o'rnatish ustida ishlayapman. Bunda sun'iy intellekt orqali haydovchining horg'in, uyqusizlik, charchoq holatlari aniqlanadi. Shu bilan birga, tirbandlikni oldindan aniqlash ustida ham ishlayapman. Bu orqali sun'iy intellekt modellarini chorraha va yo'llardagi kamera tasvirlarini qayta ishlab, ko'chalardagi tirbandlikni oldindan prognoz qilib beradi.

Tadbir davomida ishtirokchilar yangi o'quv binosida talabalar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

F.FAXRIDINOV.

Sportchilarimiz — yurtimiz iftixori

Prezidentimizning shu yil 23-avgustdagi farmoni bilan bir guruh yurtdoshlarimiz qatorida badiiy gimnastika bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi Taxmina Ikromova «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi» faxriy unvoniga, yakkakurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi paradzyudo bo'yicha murabbiyi Dilnoza Bohromova "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

KELAJAK BUNYODKORI

Taxmina Ikromova 2004-yil Samarqand shahrida tug'ilgan. 15 yildan buyon badiiy gimnastika bilan shug'ullandi.

Taxmina shifokorlar oilasida tug'aygan, deydi viloyat gimnastika sport turlariga ixtisoslashgan sport maktabi murabbiysi Yelena Aslanova. Ota-onasi to'rt yoshida uni badiiy gimnastika bilan shug'ullanish uchun oldimga olib kelgandi. Yoshligidan mehnatkash, boshlagan ishini oxirigacha yetkazadigan, ko'zlagan maqsadiga erishmaguncha harakatdan to'xtamaydigan qiz. Dastlab viloyat va respublika musobaqalarida yaxshi ko'rsatkichlarga erishdi. 2015-yilda esa terma jamoaga qabul qilinib, jahon arenalarida ham yurtimiz bayrog'ini baland ko'taryapti.

Taxmina faoliyati davomida bir necha marta O'zbekiston, Osiyo va jahon chempioni, jahon kubogi, universiada o'yinlari, xalqaro turnirlar g'olib va sovrindori bo'lgan. O'zbekistonda 2023-yilning eng yaxshi ayol sportchisi deb topilgan va mamlakatimiz sportchilari orasida birinchi bo'lib "Parij-2024" Olimpiadasi yo'llanmasini qo'lga kiritgan. Hozirda milliy terma jamoa tarkibida murabbiyi Liliya Vlasova qo'l ostida shug'ullanmoqda.

«E'TIROF KUCH-G'AYRAT BAG'ISHLADI»

Dilnoza Bahromova 1987-yilda Past Darg'om tumanida tug'ilgan. 20 yildan buyon viloyat yakkakurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabida dzyudo va para dzyudo bo'yicha murabbiylik qilib keladi.

Faoliyatim davomida 10 dan ziyod O'zbekiston, Osiyo, jahon chempioni va sovrindori hamda xalqaro toifadagi sport ustalarini tayyorlaganman, deydi D.Bahromova. Xususan, shogirdlarim — Vasila Aliboyeva to'rt karra Osiyo chempioni, Parvina Samandarova "Tokio-2020" paralimpiya o'yinlari sovrindori va xalqaro turnirlar g'olibi hamda Uljon Amriyeva 2024-yil Parijda o'tkazilgan paralimpiya o'yinlari ishtirokchisi, ko'zi ojizlar o'rtasida jahon chempioni bo'lgan ilk o'zbekistonlik ayol para dzyudochiga aylangan.

Mana shu mehnatlarim samarasi o'laroq Prezidentimiz tomonidan "Shuhrat" medali bilan taqdirlandim. Ushbu e'tirof menga katta kuch-g'ayrat bag'ishladi. Bu medal nafaqat meniki, balki oila a'zolarim, do'st-larim va shogirdlarimniki ham. Kelgusida shogirdlarim bilan bundan-da yuqori natijalarga erishib, yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarish uchun harakat qilamiz.

F.RO'ZIBOYEV.



TOG‘ ORTIDAGI HAYOT



Nakurt - Payariq tumanining eng olis hududida joylashgan mahalla. Aholisi asosan, lalmi yerda dehqonchilik qiladi va chorvachilik bilan shug‘ullanadi.

50 KILOMETRGACHA MASOFANI PIYODA BOSIB O‘TGANLAR

Bir paytlar bu mahallada ulov masalasi juda og‘ir bo‘lgan. Yo‘llari ham shunga yarasha edi. O‘quvchilar ta‘lim olishi, aholi tibbiy xizmatdan foydalanishi uchun sharoit yetarli bo‘lmagan.

- O‘tmish haqida gapirsam, hozirgi yoshlarga ertakdek tuyuladi, - deydi 85 yoshli otaxon Muhammad Samarov. – Kattagina qishlog‘imizda birgina maktab bor edi. 8 yillik ta‘limni shu yerda olganmiz. Yuqori sinflarda o‘qish uchun 8 kilometr uzoqlikda joylashgan qo‘shni Jizzax viloyati Forish tumani Garasha qishlog‘idagi maktabga qatnaganmiz. Keyin Samarqand qishloq xo‘jaligi institutida o‘qidim. Tala-balik davrimda uyga 3-4 oyda bir kelardim. Sababi texnika muammo edi. Samarqanddan duch kelgan texnikaga, asosan, yuk mashinalarida Qo‘shrabot tumanining Zarmitan qo‘rg‘onigacha kelib, bu yog‘iga 25 kilometr masofani piyoda bosib o‘tardik. Ba‘zida Payariq tumani markazidan qishlog‘imizgacha, ya‘ni 50 kilometrdan ziyodroq yo‘lda yayov yurganmiz. Aksariyat chaqaloqlar uyda yoki yo‘lda tug‘ilgan.

Bugun-chi? Mahallada bir nechta tibbiyot muassasasi, xususan, tez tibbiy yordam shoxobchasi ishlab turibdi. Ahamiyatlisi, deyarli har bir xonadonda avtomashina bor.

TOSH MAKTABLARDAN MASHHURLAR YETISHIB CHIQQAN

Mahalladagi mavjud 14 ta qishloqda 5 ta maktab va ularning ikkitasiga qarashli 5 ta filiali bor. Shoir Azim Suyun, professorlar Ahmad Qo‘chqorov, Norqul Qo‘shmatov kabi taniqli shaxslar shu hudud-dagi 39-maktabda ta‘lim olgan. Ular o‘qigan davrda bu maktab toshdan qurilgan binoda faoliyat olib borgan.

- 2012-yilda maktab uchun ikki qavatli yangi bino qurildi, - deydi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi Rustam Eshquvvatov. – Ayni damda maktabning 4 ta filiali bor. Ularning birida boshlang‘ich ta‘limni olganman va bugun shu filialda dars beraman. Biz o‘qigan paytda bugungidek imkoniyatlar yo‘q edi. Masalan, bino toshdan qurilgan, fasadi va tom usti loy bilan suvalgandi. Yog‘ingarchilik kunlarida chakka o‘tardi. Shunday kunlarda o‘qituvchimiz topshirig‘iga binoan maktabga kovush kiyib borardik va tomga tuz sepib, ustidan bosib chiqardik. Shu bilan bir muddat tomchi o‘tmasdi.

Bugun mahallada toshdan qurilgan maktablar o‘rnida zamonaviy, barcha sharoitlarga ega binolar qad ko‘targan. Imkoniyatlardan unumli foydalana-yotgan o‘quvchilar esa ko‘pgina yutuqlarni qo‘lga kiritayпти.

- Bu yil ta‘lim muassasamizni tamomlagan 32 bitiruvchining 14 nafari davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirdi, - deydi maktab direktori o‘rinbosari Shoira Nazarova. – Ularning 7 nafari turli fanlardan milliy sertifikatlarga ega edi. Bir nafar bitiruvchimiz ingliz tili fanidan IELTS sertifikatini qo‘lga kiritib, muddatidan oldin nufuzli xalqaro universitet talabasi bo‘ldi.



YOSHLAR ORTIQCHA KUCHINI HASHARGA ISHLATADI

Ikki yildan beri mahallada yoshlar tomonidan jino-yatchilik sodir etilmagan. Ayni paytda bu yo‘nalish bo‘yicha Nakurt “yashil hudud” hisoblanadi.

- Mahallamizda 6193 nafar aholi istiqomat qiladi, - deydi yoshlar yetakchisi Oxun Aliyev. – Ularning 1684 nafari 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlardir. Yoshlarimizning 17 nafari ishsiz. Ular ham bekor qolgani yo‘q, hozircha mavsumiy ishlar bilan band. Bilasiz, tog‘lik yigitlar baquvvat, g‘ayratli bo‘ladi. Ularning bo‘sh vaqti bo‘lsa, mahallada o‘tkaziladigan hasharga o‘z hissasini qo‘shadi.

Shu paytga qadar mahalla fuqarolar yig‘ini o‘z binosiga ega bo‘lmagan. Yaqinda hashar yo‘li bilan qurilish ishlari boshlab yuborildi. Har kim qurbi yetgancha moddiy yordam berdi. Ayrim yoshlar esa mehnati bilan binoning bunyod etilishiga hissa qo‘shdi. Imoratning devori bitib, tomi yopilgan. Qolgan ishlar, ya‘ni tom ustini shiferlash, eshik va deraza romlarini o‘rnatish uchun homiylik yordami zarur. Bu masalaga tuman hokimligi ham alohida e‘tibor qaratar balki.

SUVSIZ YERDA BOG‘ YARATILDI

Mahallada aholi daromadini oshirish, farovonlikni yaxshilash maqsadida ham xayrli tadbirlar amalga oshirilyapti.

- Yil boshida 71 nafar fuqaro ishsizlar ro‘yxatiga olindi, - deydi mahalladagi hokim yordamchisi Xurshid Qoraqulov. – Doimiy ishga joylashtirish, “Har bir oila - tadbirkor” dasturi asosida imtiyozli kredit ajratish hisobiga 50 nafar fuqaroning bandligi ta‘minlandi. Shuningdek, nogironligi bo‘lgan fuqarolarga, boquvchisini yo‘qotgan oilalarga subsidiya asosida tikuv mashinalari, shirinliklar pishirish pechi, motokultivator va boshqa shu kabi uskunalar berildi.

- Adirlkida joylashgan 25 sotix maydonda bog‘ yaratishga harakat qilyapman, - deydi ikkinchi guruh nogironi Arslon Eshmirzayev. – Turmush o‘rtog‘im, farzandlarim ko‘magida erta bahorda 150 tup gilos, 40 tup tut ko‘chatlarini o‘tqazdik. Mahalla tomonidan subsidiya asosida berilgan motokultivator yordamida yerga ishlov berib, nihollar orasiga qovun-tarvuz urug‘ini qadadik. Tajriba sifatida tomchilatib sug‘orish tizimini sinab ko‘rdim. Natijasi yaxshi bo‘ldi. Suv tejaldi, hech bir daraxt qurib qolmadi. Qovun-tarvuzning hosili ham yomonmas. Kelgusida bog‘ni 2 gektarga kengaytirish niyatim bor.

Bir paytlar mahallaning o‘ydim-chuqur bo‘lib yotgan asosiy ko‘chalari rasvonalashgan. Ichki ko‘chalarga ham navbati bilan asfalt yotqizilyapti. Yaqinda “Tashabbusli budjet” asosida 3 kilometrga yaqin yo‘l asfaltlandi. Ta‘lim va tibbiyot muassasalari uchun ham qo‘shimcha zamonaviy binolar bunyod etilyapti. Mahalla ahli mustaqilligimizning 34 yilligini turli yutuqlar bilan, ko‘tarinki kayfiyatda qarshi olayпти.

To‘lqin SIDDIQOV, Baxtiyor MUSTANOV (surat).

Ёшим етмишдан ошди. Икки тузумни кўрдим, ҳатто мустақиллик даврида ҳам икки хил иш услубига дуч келдим. 45 йил бир жойда – «Ургут садоси» газетаси таҳририятида ишладим. Бировдан кўп, бировдан кам, лекин ҳеч кимга оғирлигимни ташлаган эмасман. Турмуш ўртоғим Кимёхон билан (жойи жаннатдан бўлсин) жамиятга муносиб зурёдлар тарбияладик. Демокчиманки, бугунги ҳаётга қандай муносабатда бўлиш кераклиги тўғрисида хулосаларимни айтишга маънавий ҳаққим бор.

Замоннинг тез ўзгариши, табиийки, дунёга бўлган муносабатимизни ҳам ўзгартириб юборди. Айниқса, давлатни мустақил бошқаришда замонавий тажрибанинг йўқлиги бизни мураккаб ҳолатларга солиб қўйди. Ўшанда ҳам халқимиз эътиқодидан, аждодлар қолдирган ҳислатлардан, анъаналардан воз кечмади. Шунинг учун бўлса керак, бугун Ўзбекистон дунё ҳамжамиятида алоҳида мамлакатгина эмас, балки ибратга молик давлат сифатида эътироф этилмоқда, тан олинмоқда. Умрим давомида кўп сиёсий воқеаларни кузатганлигим боис мамлакатимизнинг халқро майдонда эришадиган ютуқлари, обрўси не чоғлик маънавий ҳасорати эвазига қўлга киритаётганини ахши англайман.

Бугун дунёдаги вазиятни ҳаммамиз кўриб турибмиз. Сайёрамизнинг геосиёсий манзараси кун сайин ўзгармоқда. Қудратли давлатларнинг ташқи сиёсати дунёни қайта бўлиб олишга уринишга ўхшайди. Тинчлик қадр-қиммати ошиб борапти. Мана шундай пайтда дунёда ўз ўрнини мустақамлаш, ҳар қандай давлат билан тенг манфаатли ҳамкорлик қилиш, юртимиздаги тинчлик-барқарорлиқни таъминлаш энг асосий вазифа бўлмоқда. Давлатимизнинг, Президентимизнинг фаол ва прагматик ташқи сиёсати шунга қаратилган. Лекин буни ҳар биримиз ҳис қиляпмизми? Гап мана шунда.

Албатта, менинг ёшимдагилар ҳозирги болаларга ўз ҳаётимизни айтиб берсак, чўпқадек туюлади. Ҳатто қирғинбарот Иккинчи жаҳон уруши даҳшатларини ҳам одамзод эсдан чиқараётганга ўхшайди. Мана шундай пайтда ҳамкорликнинг, биродарликнинг, муҳими, тинчликнинг қадрига ета олиш, назаримда, ҳазрати инсон учун энг улуг фарз ҳисобланади. Толеимизга шукрки, давлатимиз бизга ана шу тинчликни таъминлаб берапти.

Баъзан невараларим билан Ургут шаҳрини айланаман. Янгидан қад кўтарган замонавий иншоотларга қараб, ҳавас қиламан. Қурилиш бўлмаган кўчанинг ўзи қолмади. Бир пайтлар гиёҳ унмайдиган, қақраган дала-дашларда кўркам боғлар яратилди. Сариктепадаги сувсиз, тоққа туташиб кетган қир-адирликларда шундай улкан завод ва фабрикалар қурилдики, ишонгингиз келмайди. Мерганчадаги, тоққа бўйлашаман дегандек кўкка бўй чўзган кўп қаватли уйлар-чи, бугун бу жойлар йи-

ШУКРОНАЛИК ҲАЛОВАТИ



рик аҳоли масканига айланди. “Янги Ўзбекистон” деб бунёдкорликларга мос ном берилган бу шаҳарчада бугун минглаб аҳоли ҳаёт кечирмоқда. Қишлоқларимиз манзараси ҳам йилдан йилга ўзгариб, шаҳарларга хос турмуш тарзи қарор топмоқда. Уй-жойларга хизмат кўрсатиш ва сервис шунга яраша. Йўлларга ҳам асфальт ётқизилляпти, бунинг устига IT марказлари пайдо бўлди. Ўтирган жойимизда банкдан кредит оламиз, паспортимизни янгилаймиз, пенсияни расмийлаштираимиз. Яшириб нима қиламан, бундай имтиёзлар бизлар учун орзудан бошқа нарса эмас эди.

Ҳар ким Ўзбекистоннинг истаган ерида яшаши, мулкдор бўлиши, ишлаши мумкин. Олий ўқув юртларида ҳам илм оламан, ўқийман, деган одам учун ҳамма шароитлар яратилди. Ҳатто бизнинг Ургутда СамДУнинг филиали очилди. Давлатимиз раҳбарининг эътибори ва ғамхўрлиги туфайли Ургутда очилган эркин иқтисодий зона корхоналари юз фоиз экспорт учун маҳсулот чиқармоқда. Ахир бу давлат оқилона сиёсатининг, меҳнаткаш халқимиз шихоатининг самараси эмасми?

Мана, бугун Ургутга поезд келяпти. Бу гапни йигирма йил олдин айтсангиз, ақли жойидами бу одамнинг, дейишлари аниқ эди. Лекин бугун бу гап рўё эмас, ҳақиқатга айланяпти. Эллик километрдан ортққ масофага жуда қисқа фурсатда темир излар

ётқизилмоқда. Жартена ва Ургут шаҳри дарвозаси олдида вокзал қад ростлади. Бу давлатнинг, Ўзбекистоннинг куч-қудрати, иқтисодий имкониятлари, халқимизнинг бунёдкорлик салоҳияти тимсоли ва элпарвар Президентимизнинг узоқни кўзлаб амалга оширадиган сиёсати самараси эмасми?

Мустақиллик байрами яқинлашган сари юрагим фахр-ифтихорга тўлаверади. Чунки мен ана шу юртда камол топдим. Ва, шу юртнинг кундан-кунга чирой очадиган камоллини кўриб турибман. Бундай ҳаёт ўз-ўзидан, осмондан келмаслигини ҳам яхши биламан. Бугун Ўзбекистоннинг дунё билан бўйлашуви, халқро майдонда ҳатто ташаббускорлик қилиши учинчи Ренессанс нафасига ишора эканлигини англаш қийин эмас.

Донишмандларимиз ҳамиша шукроналиқни эзгу фазилат сифатида қадрлашган. Улар ҳар қандай миллатнинг қадр-қиммати илм ва одобда эканлигини қайта-қайта такрорлашган. Шу сабабли Ўзбекистоннинг жамиятда билим қадрини оширишга қаратилган сиёсати халқимизнинг эзгу ҳислатларини намойиш қилмоқда.

Шукроналик қўл қовуштириб, бориға шукр қилиб ўтириш эмас. Шукроналик бор имкониятдан фойдаланиш чораларини кўришдир. Тўрт мучамиз соғ бўлса-ю, бировдан наҳот кутсак, қайси адолатга тўғри келади. Шукроналикнинг ҳаловати яшаш учун, яхши яшаш учун кураша билишда, Яратганининг беҳисоб имкони – ҳар бир кундан оқилона фойдаланишда, вақтимизни беҳуда сарфлашдан аввалло, ўзимиз, оиламиз, қишлоғимиз, қолаверса, жамият учун фойдали иш билан шуғулланишдир.

Шукроналик ҳаловати – диндаги юрт ифтихори! Бу ифтихор ана шу юртимдан олаётган куч-қудрат, таъриба ва дунё ҳамжамиятидан келаётган эътироф туфайли юрагимда ҳамиша жўш уриб тураверади.

Матлаб ҲАСАНОВ, Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси аъзоси, меҳнат фахрийси.



Yarim yilda Samarqandga qancha sarmoya jalb etildi?



Joriy yil viloyatda 3,6 milliard dollarlik xorijiy investitsiya va kreditlarni o‘zlashtirish belgilangan. Davlat investitsiya dasturiga muvofiq, joriy yilning ikkinchi choragi yakuni bilan 1086,9 million dollar xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirildi va 128 foiz o‘shish qayd etilgan.

Viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari Sheroz Sobirov ishtirokida o‘tkazilgan matbuot anjumanida bu ma‘lumotlar qayd etilib, viloyatga investitsiya jalb qilinishi ijobiy ko‘rsatkich sifatida baholandi. Bundan tashqari, yarim yillikda 462,9 million dollarlik mahsulotlar eksportga chiqarilib, ko‘zlangan reja 142 foizga bajarilgan.

- O‘tgan vaqt davomida 480 ta korxona tomonidan 738 turdagi mahsulotlar eksporti amalga oshirildi, - deydi Sh.Sobirov.

- Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha tasdiqlangan hududiy investitsiya dasturiga ko‘ra, qiymati 1 milliard 631,6 million dollarlik 834 ta loyiha ishga tushirilib, 23,3

mingdan ortiq ish o‘rinlarini tashkil etish belgilangan. Jumladan, birinchi yarim yillikda 199,2 million dollarlik 332 ta loyiha ishga tushirildi va 3870 ta ish o‘rni yaratildi. Misol uchun, Samarqand tumanida “Marjona Diyor Tekstil” MChJ negizida zamonaviy xususiy institut hamda savdo kompleksini tashkil etish loyihasi doirasida 10,5 million dollar o‘zlashtirilib, 200 ta yangi ish o‘rni ochildi. Yilning birinchi yarmida viloyat hokimligiga 56 davlatdan 170 dan ortiq xorijiy kompaniya vakillari tashrif buyurib, jami 4,6 milliard dollarlik investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha muzokaralar olib borildi. Viloyat rasmiylari va tadbirkorlardan iborat delegatsiyalar shakllantirilib, Xitoy, Malayziya, Indoneziya, Quvayt va Fransiya xizmat safarlari amalga oshirildi va 1,2 milliard dollarlik 97 ta investitsiya loyihasi bo‘yicha dastlabki kelishuvlarga erishildi.

O‘ktam XUDOYBERDIYEV.



УЧРАШУВДАН СЎНГ
Нихоят тинчликсевар дунё халқлари орзиқиб кутган 15 август ҳам ўтиб кетди. АҚШ ва Россия президентлари ўн бир йилдан буён Украинада давом этаётган қонли можарога чек қўйиш мақсадида уюштирилган тарихий учрашув ортда қолди. Уюштирилган дейишимнинг боиси шундаки, 8 август кuni президент Трампнинг сабр косаси тўлиб, Россияга қарши мисли кўрилмаган чекловлар эълон қилиниши кутилаётган эди. Шунда президент Путин унга сим қоқиб, яна бир марта имкон беришини сўради. Бундан чиройи очилган Трамп уни яккама-якка учрашувга таклиф қилди. Учрашув жойи этиб Аляска штатининг Анкориж шаҳридаги ҳарбий база танланди. Бу борада ҳам Путиннинг муғомбирлик даражаси рақибдан кўра бир парда юқори эканлиги кўриниб қолди.

Биринчидан, собиқ бўлса-да, Аляска Россия ҳудуди. Иккинчидан, учрашувнинг АҚШда ўтказилиши Путиннинг халқаро обрўсини яна бир даражага кўтаради. Учинчидан, учрашувнинг ҳарбий баада бўлиб ўтиши унинг шахсий ҳавфсизлигини тўлиқ кафолатлайди. Ана шу омилар асосида ҳали учрашув ўтказилмаёқ Путин биринчи ғалабасини кўлга киритди, дейиш мумкин. Унинг иккинчи ғалабаси шунда бўлдики, яккама-якка бўлиши кутилаётган мулоқотни учлик сўхбат қилишга эришди. Трампнинг гапни қисқа қилиш ҳақида-ги режасини бузиб, учрашувни нақ тўрт соатга чўзди. Бунинг устига Трампнинг яна бир марта ҳафсаласини пир қилиб, бўлғуси матбуот анжумани ҳамда куюқ зиёфатга ўрин қолдирмади. Трампнинг бундан асаби бузилган эса-да тишини тишига босиб, оқини зўрма-зўраки кўрсатишга мажбур бўлди.

Гарчанд, у учрашув натижаси 10 баллик муваффақият билан яқунланганини айтган бўлса-да, жаҳон афкор оммасининг наздида Путин билан ўзи бошлаган дипломатик ўйинни бой берди. Ўрни, Путин қашқатқич санкциялар муддатини яна орқага чўзиб, Украина шахар ва қишлоқлари узра бомба ёғдиришда давом этди. Бу энди тинчликпарвар инсоният ва Трампнинг юзига шапалок тортиб юборгандек таассурот қолдирди. Учрашув олдиндан баъзи хаёлпараст кишилар Путин Америка тупроғига қадам қўйиши билан Трамп уни ҳарбий жинойтчи сифатида кўлига кишан солиб, тўри Гаагадаги халқаро суд кўлига топширади, деб фараз қилишганди.

Аммо Трамп аввалги мақолаларимизда бир неча бор эслатганимиздек, айёр сиёсатчи эмас, балки ҳалол иш юритадиган ва лафзида турадиган бизнесмен. У куруқ, айёрона алдамчи сафсатабозликдан кўра, кўпроқ очик келишувчанликни хуш кўради. Шу тўғйайли ҳам Ҳиндистон-Покистон, Таиланд-Камбоджа, Озарбайжон-Арманистон, Исроил-Эрон каби мамлакатлар орасидаги зиддиятларни юмшатишга эришиб, дунё тинчлиги йўлида катта амалий ҳисса қўшди. Айтиш мумкинки, Трамп ўтган асрлар андазасидаги уста тadbиркор. У иш фойлияти давомида келишув ва муроаа йўли билан олти марта банкротлик жарлиги ёқасидан омон чиққан. Шу тўғйайли бўлса керак, у Путинни самимий иззат-икром билан кутиб олди. Трампнинг шухратпарастлигига келсак, ҳар бир инсон ўзидан яхши ном қолишини истайди. Орзу қилишни эса ҳеч ким ман этган эмас. Агар Трамп Россия билан Украина орасидаги урушга чек қўйса, шубҳасиз, Нобель номидаги халқаро тинчлик мукофотига сазовор бўлади. Тўғри, ҳали тамоман ечилимаган бир канча муаммолар келажак авлодларга даҳмаза мерос бўлиб қолади. Аммо олдиндан бирор-бир фаразини айтиш қийин. Майли, бу борада ҳақамлик қилмайлик-да, воқеалар ривожини эътибор билан кузатиб бораёйлик.

МАҚТАНЧОҚ КАККУ ВА ХЎРОЗ
Таниқли рус шоки Иван Криловнинг “Какку ва хўроз” номли машҳур масали бор. Унда какку ва хўрознинг бир-бири ҳақидаги мактовларини пучга чиқарган чумчуқча ҳақида гап боради. Бугунги вазиятда Путинни хўрозга, Трампни эса мақтанчоқ каккуга бемалол қиёслаш мумкин. Айтайлик, Трамп: “Агар мен ўша пайтда президент бўлганимда эди, уруш ҳеч қачон бўлмасди. Бу менинг эмас, Байденнинг уруши”, деб сайраганида, Путин: “Ҳа-ҳа, сиз президент бўлганингизда, уруш асло бошланмасди”, деб унга Ҳамоҳанг бўлди. Хўш, шундай экан, Путин Трампни шунчалик ҳурмат қилар экан, нега энди АҚШда президент алмашганидан кейин ҳам ҳарбий ҳаракатларни тўхтатмаяпти? Аксинча, уруш олови кундан кунга баттар алан-галанмоқда. Аслида улар мактаб, мактаб, шарқарғуторлик



қилиб, бир-бирини қанчалик ёқламасин, моҳият ўзгармайди. Путиннинг бош мақсади: Европа Иттифоқини АҚШдан ажратиб олиб, пароканда қилиш, АҚШнинг ўзини ҳам тартибсизликлар гирдобига гарқ этди, шу йўл билан рус империясининг аввалги шон-шухратини тиклашдан иборатлиги тобора аён кўринмоқда.

Бироқ шуниси борки, Россия ўз тарихида қанақа муваффақиятга эришган бўлса, ҳамма даврларда ҳам Ғарб мамлакатларининг кўмаги билан бўлган. Европа фан-техникаси ва Ғарб технологиялари ҳозир ҳам дунё мамлакатларининг таянч кучи бўлиб тургани ҳеч кимга сир эмас. Ғарб давлатлари билан келишмаётган барча мамлакатлар сиёсий ва иқтисодий жиҳатдан дунё тараққиётидан тобора ортда қолмоқда. Буни биргина Хитой мисолида аққол кўриш мумкин. Ғарб инвестициялари асосида Хитойда чинакам иқтисодий-технологик инқилоб амалга оширилди. Ўтуклардан ҳовлиқиб қолган хитойлик ўртқоқлар Ғарб мамлакатлари билан сал чап бўлишганди, ишлари ҳам чаппасига қараб огди. Хориж оммавий ахборот воситаларининг хабарига кўра, Ғарб инвесторлари аста-секин Хитойни тарк эта бошлаган. Улар ўз ишлаб чиқаришларини Ҳиндистон, Индонезия, Малайзия, Вьетнам, Филиппин сингари хориж мамлакатларига кўчирмоқда экан. Бунинг сабаби, Хитой кейинги пайтларда технология ютукларидан ҳарбий мақсадларда фойдаланишни кенгайтирмоқда. Бу эса шубҳасиз, бошқаларга мутлақо ёқмаяпти. Чунки Россия тажрибаси уларга ёрқин ибрат бўлгани кўриниб турибди. Бир пайтлар собиқ СССР ҳам Ғарбдан кучли мадад олиб оёққа туриб олгач, Ғарб дунёсига қарши “совуқ уруш” бошлаган эди. Хитой ҳали ҳарбий соҳада жудаям кучайган бўлмаса-да, Ғарб мамлакатлари бўлиб ўтган воқеалар сабогини ёдда сақлаши шубҳасиз.

Шу маънода, АҚШ маъмурулари кучли йигирмалик давлатлар иттифоқига шубҳа билан қарамоқда. “Жанубий альянс” деб номланувчи БРИКС ташкилоти ҳам кейинги вақтда ўз муаммоларига ўралашиб қолди. ШҲТ, ЕОИИ сингари иқтисодий уюшмалар ҳақида эслатиб ўтирмасак ҳам бўлди. Улар шунчаки, халқаро гаштакбозликка ўтхшаб қолган аморф уюшмаларга айланиб бормоқда.

Аммо кейинги даврда шунақа иттифоклар вужудга келмоқдаки, улар билан ҳисоблашмасликнинг мутлақо иложи йўқ. Масалан, Европа билан Украина иттифоқи ёки Туркия билан Озарбайжон ҳамкорлиги ҳақида алоҳида тўхталиб ўтишимиз мумкин. Украина бугунги кунда Ғарб дунёсининг ҳам сиёсий, ҳам ҳарбий жиҳатдан зарбдор кучига айланди. Кейинги кунларда АҚШда бўлиб ўтган Ғарб мамлакатлари раҳбарларининг учрашувида бу ҳолат аққол кўриниб қолди. Чунки украин армияси бугунги кунда дунёнинг манаман деган кучли армияси билан тенгма-тенг жанг қилиш қобилиятини намоён қилди. Бизнинг бугунги беафакт

дунёмизда бу кўп нарсани англатади. Айтиш мумкинки, Украинада олиб борилаётган ҳаёт-мамонт жанглари биргина Европа эмас, балки дунёнинг яқин келажакдаги сиёсий қиёфасини белгилайди.

XX аср жаҳон ҳақида сўл кучларнинг устунлиги натижасида нисбатан тинч вазиятда яқунланган эди. XXI асрдан бошлаб дунё сиёсий соати кафгири ўнг томонга оға бошлади. Оқибатда вазият кескинлашиб, янги-янги уруш ўчоқлари пайдо бўлди.

ДУНЁГА ТИНЧЛИК КЕРАК

Бугун урушларнинг кўпайиб кетишига бир томондан жаҳон миқёсида ўнг радикал кучларнинг таъсири кучайиб бораётгани битта сабаб бўлса, иккинчи томондан дунё аҳлининг тинчлик масаласига қоқайдлиги ҳам асосий омилардан яна биридир. Бунга қўйидаги воқеаларни мисол қилиб келтирмоқчиман.

Ўтган асрнинг 80-йилларида америкалик мактаб ўқувчиси Саманта Смит собиқ СССР раҳбарларига урушга йўл қўймасликни илтимос қилиб мактуб ёзганди. Унинг хати дунё оммавий ахборот воситалари орқали эълон қилиниб, катта халқаро шов-шувга сабаб бўлганди. Ўша даврдаги матбуотимиз ҳам қарийб бир йил давомида ушбу хатни муҳокама қилганди. Шу йил июнь ойида Ўзбекистон Ёзувчилар уюммаси аъзоси, “Маънавият фидойиси” медали соҳиби Ўлмасбек Самарқандий “Тинчтиб бер, бизга дунёни” номли шеъри билан Бирлашган Миллатлар Ташкилотига мурожаат қилди. Шоир ушбу шеъри учун Жаҳон қаламкашлари иттифоқи ҳамда Украина Олий таълим вазирлиги томонидан Гран-При мукофотига сазовор бўлди.

Айрим мамлакатлар борки, уларда “тинчлик” сўзи тилга олинмай қўйди. Илгари ҳар бир кўринали жойларда илиб қўйиладиган “Дунёга тинчлик!”, “Биз тинчлик истаймиз!” сингари шиорлар кўринмай қолди. Одамлар ҳам болаларига энди Замир, Замира, Дамир, Дамира сингари исмларни қўйишмаяпти.

Шу маънода, бир вақтлар дунёни қалқитиб юборган сўл ғоялар ўлиб кетди, деган кишилар қаттиқ янглишади. Ўрни келганда, ўнг ва сўл ғоялар ҳақида бирров эслатиб қўйсак зарар қилмайди. Содда қилиб айтганда, одамларнинг қашшоқлашувига бойлар сабабчи, деган тушунча - бу сўлларнинг ғояси. Коммунистларнинг пролетариат ва буржуазия ҳақидаги назарияси айнан ана шу тушунчалардан униб чиққан. Ўнглр эса айбни йўқсилларнинг ўз ўқувсизлигига ағдаради. Бу борада шуни қайд этиб ўтиш керакки, ушбу икки гуруҳ таркибида ақли одамлар билан бирга ақлсизлари ҳам учраб туради. Ҳокимият жиловы мабодо улар қўлига ўтиб қолган тақдирда, оддий халқнинг шўрига шўрва тўкилди, деяверинг.

Худойберди КОМИЛОВ,
сиёсий шарҳловчи.

Hamjihatlik bo‘lsa, muammoga yechim topiladi

Keyingi yillardagi iqlim o‘zgarishi tabiat muvozanatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, yer osti va yer usti suvlarining keskin kamayib ketgani hech kimga sir emas. Ariqlarda suv oqmayotganligi sababli ayrim mahalla, qishloqlarda ariq-zovurlar qazilmasdan, ko‘milib ketmoqda.

Bobolarimiz aytganidek yillar o'tsada, daryo o'z o'zanini topadi. Shunday ekan, suv kamligi yoki yo'qligidan qat'i nazar, har yili ariq-zovurlar qazilishi kerak. Bu avvalo, ertangi kunga ishonch uyg'otadi, qolaversa, bahorgi sel-suv toshqinlarini yengishda yordam beradi. Ariq-zovurlari qazib, bor suvdan unumli foydalanish har bir insonning burchi.

Payariq tumanining Navro'z va To'moyrot mahallalari, Qarri, Oqqo'rg'on, Jiyanbek qishloqlari faxriylari Payariq va Jomboy tumanlarining 14 ta qishlog'iga xizmat qiladigan Qurbonobod arig'ini keyingi 10 yilda qarovsiz ahvolga kelib qolganligi sababli aholi oqar suvdan foydalana olmayotganlari to'g'risida Suv xo'jaligi vazirligiga murojaat qilishdi. Murojaat asosida tegishli mutaxassislar muammo-ni o'rgandi. Natijada Qurbonobod arig'ining suv taqsimlaydigan bosh o'zanidan boshlab quyida joylashgan Oqqo'rg'on qishlog'igacha qazildi, ekskavator qaziy olmaydigan joylarda hashar uyushtirildi, ariq shox-shab-balardan tozalandi.

Hamijhatlik va maslahatlashgan holda boshlangan xayrli ish natijasida taxminan 15 kilometrlik Qurbonobod arig'i tozalanib, quyidagi qishloqlarga ham suv yetib bordi. Muhimi, ariq 2026-yilda dastur asosida beton-lashtiriladigan bo'ldi.

Zubaydulla IBRAGIMOV.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand viloyati adliya boshqarmasidan 1998-yil 27-noyabrda ro'yxatdan o'tgan O'zbekiston "Yoshlik" jismoiniy tarbiya va sport jamiyati Samarqand viloyati mintaqaviy bo'limi O'zbekiston "Yoshlik" jismoiniy tarbiya va sport jamiyatining 2025-yil 19-avgustda o'tkazilgan navbatdan tashqari qurultoy yig'ilishi 16-sonli qaroriga asosan tugatilmoqda. Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha e'tirozlar gazetada e'lon chop etilgach, ikki oy davomida qabul qilinadi.

Bo'limning pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati, Samarqand shahri, G'Karimov ko'chasi, 7-uy.
Bo'limning soliq to'laydigan identifikatsion raqami (STIR): 202057720.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Ismatov Asadga (2003-yil 25-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Danilova Svetlana Vladimirovna (2023-yil 11-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Maxmudov Xozidga (2022-yil 26-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning

Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O'rtashiq mahallasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Oblakulov Urakga (2010-yil 14-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasida marhum Zaynitdinov Savritdinga (2020-yil 20-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Xomidova Zebiga (1996-yil 1-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Dunayeva Emiliya Onufriyevna (2010-yil 20-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat

bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Melikov Mavlonkulga (2022-yil 11-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Vafayeva Maxzubaga (2001-yil 10-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasida marhum Achilova Nodira Karimovna (2023-yil 7-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Ali-sher Toshboltaevich notarial idorasida marhum Muradkabilova Muyassarga (2025-yil

TANLOVDA QATNASHING!
“Bulung‘ur dehqon bozori” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining “Oqtepa” filiali hududidan shartnoma asosida 50 metr chuqurlikdan suv chiqarishga (artezian qazishga) va maydoni 50 metr kvadrat bo‘lgan hojtaxona qurish uchun tegishli malakali tashkilotlar o‘rtasida tanlov e‘lon qilinadi.
Talabgorlarni o'z takliflari bilan 2025-yil 8-sentabr kuni soat 11-00 da “Bulung‘ur dehqon bozori” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining ma‘muriy binosida bo‘lib o‘tadigan tanlovda qatnashishga taklif etamiz.
Manzil: Bulung‘ur tumani “Mehrijon” MFY, Sohibkor ko‘chasi. Murojaat uchun telefon: +99891-187-70-07, +99899-028-03-03.
“BULUNG‘UR DEHQON BOZORI” MCHJ MA‘MURIYATI.

28-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Alisher Toshboltaevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Firdavsiy ko'chasi, 96-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nurqosimov Jamshid Sayfiddinovich notarial idorasida marhum Xashimov Alimjonga (2015-yil 14-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nurqosimov Jamshid Sayfiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Panjob ko'chasi, 4-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasida marhum Toshpulotova Tutiga (1995-yil 20-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

O'zbekiston davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi viloyat kengashi aksiyadorlik tijorat "Xalq banki" Samarqand mintaqaviy markazi kasaba uyushma qo'mitasi raisi Jalol Qurbonovga otasi **O'limasqul QURBONOV**ning vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

Афросиёб шахмати

Ўзбекистон археологлари кўҳна Самарқанд заминидан топган қадимий шахмат доналари жаҳон маданияти тарихини ўрганишга қўшилган улкан ҳиссадир.

Шахмат. Уни маъруфи донишлар «мангу барҳаёт ва ақл-идрок ўйини», «тафаккур рамзи», «халқ маданий савиясининг кўзгуси» деб мадҳ этишган.

Бу ўйин каерда пайдо бўлган, қай тарзда тараққий этган? Мутахассисларнинг ёзишича, шахмат салафи – чатуранга бундан икки ярим минг йил муқаддам Ҳиндистонда вужудга келган. Бу ҳар бири саккизтадан донали түрт армия жангидан иборат бўлиб, унинг таркибига шоҳдан ташқари, жанговар филлар ва икки ғилдиракли аравачалар, суворийлар ва пиёдалар кирган. Тўрт отряд, тўрт қўшин тури сингари номлар ҳам шундан келиб чиққан. Бу ўйинда доналарнинг ҳаракат қоидаси ҳам ўзгача, юриш тартиби ҳам ўйинчининг фикр-ўйи билан белгиланмайди, кураш рақибнинг доналарини буткул қириб юборгунча давом этади.

Чатуранга ўйини Ҳиндистондан Эронга, араб мамлакатлари-ю, Ўрта Осиёга ўтди. Ушбу мамлакатларда чатуранга анча ўзгариб, янги қоида ва сифатлар, жўшқинлик ва тезкорлик хусусиятларини касб этган. У охир-оқибат вайроналик изларини қолдирмайдиган, чуқур назария ҳамда мураккаб стратегияга асосланган чинакам ақл-идрок курашига, олижаноб баҳсга айланди. Шоҳнинг олдида уни кўриқловчи қудратли ва доно фарзин пайдо бўлди. Фарзин – шоҳнинг маслахатгўйи, оқил, доно. Ўзгача ҳаракат ва сифат касб этган ҳолда фил ва от, шунингдек, пиёдалар ҳам қолди. Айни вақтда ҳинд икки ғилдиракли аравачаси – ратха йўқолиб кетди. Унинг ўрнини исми исмига оҳангдош рух эгаллади. Даставвал, у баҳайбат йиртқич куш – жангчилар ҳомийси сифатида тасвирланган бўлса, кейинчалик минора шаклини олган.

Чатуранга Ҳиндистондан Шарқнинг бошқа мамлакатларига қачон тарқалганлиги, у қандай тарзда шахматга айланганлиги масаласи ҳам ўқувчиларни қизиқтириши турган гап.

Мавжуд адабиётларда бу ҳусусда бир хил фикрлар айтилган. Шахмат тарихининг асосчиларидан бири, инглиз шарқшуноси Г.Меррейнинг фикрича, шахмат VI асрда Ҳиндистонда пайдо бўлиб, кейин Эронга тарқалган. Совет олимлари И.А.Орбели ва К.В.Тревер эса шахмат ўйини Ҳиндистондан Хитойга, кейин Малайяга ва айни вақтда Эронга ўтган деган фикрдалар. М.Юдович эса шахмат Ҳиндистондан Эронга, Ўрта Осиё, араб мамлакатлари ва Европага тарқалган, дейди. Ўзбекистонлик шахмат тарихчилари З.Хўжаев ва Ф.Дюммель ҳамда москвалик тарихчи И.Майзелис шахмат Ўрта Осиёда милоннинг V асрида пайдо бўлган, деган назарияни ўртага ташлашди.

Шахмат тарихи И.М.Линдернинг бир қанча асарларида анча изчил баён этилган. Олим Ўрта Осиё милонининг дастлабки йиллари Шимолий Ҳиндистон билан биргаликда шахмат ўйини шакллана бошлаган территорияга кирган, деб ҳисоблайди ҳамда илк ўрта асрда шахмат тарқалишини Осиёнинг, биринчи навбатда, буддизм дини ҳукмронлик қилган ёки у кучли таъсир ўтказган мамлакатлари билан боғлайди.

Шубҳасиз, ёзма манбалардан турли мамлакатлардаги қадимий шахмат ҳақида маълумотлар олиш нур устига аъло нур бўлур эди. Бироқ қадимги кўлёзма саҳифаларида ҳозирча ўзаро маданий алоқаларнинг ана шу соҳаси ҳусусида бирор маълумотини илғаб олиш амримахол. Милоннинг биринчи асрида яратилган қадимги ҳинд эпоси: «Моҳобҳорат»да эса чатуранга баён этилган.

Доналарнинг шахмат тартибига яқин терилиши ҳақида Фирдавсийнинг «Шоҳнома» асарида фикр юритилган. Бу ўйин ҳинд донишлари томонидан яратилган бўлиб, милоннинг 570 йиллига яқин сосонийлар шоҳи Хусрав I саройида намойиш этилган. Бироқ бу маълумотларни ҳали узил-кесил илмий, деб бўлмайди. Айни вақтда IX асрда Шарқ мамлакатларида шахмат назарияси – ўткир сеҳн билан ҳал этиладиган масалалар бўлимиш мансубалар вужудга келди. Ўрта Осиё ерларига шахмат қачон кириб келганлигини билиш мумкинми? Бу саволга фақат археологиягина тўлиқ жавоб бера олиши мумкин. Унинг ёрдамисиз эса бугунги кунда қадимги шахмат маданияти тарихининг биронта масаласини ҳал этиб бўлмайди.

Республикамиз археологлари қадимий шаҳарларда қазииш ишлари олиб бориб, баъзан шахматнинг айрим доналарини ва ҳатто камбурт шахмат комплектини топишга муваффақ бўлишди.

Фил ва ўрқачли буқа – зебу тасвири энг кўҳна доналар Ўзбекистоннинг жанубидаги Давларзиптепада ўтказилган қазиишда, милоннинг II асри охирига оид қатламларда топилди. Фарғонадаги Мунчоктепа кўҳна шаҳрида эса янада қизикарли топилдиқларга эга бўлинди. Фил суягидан ясалган мўъжазгина шахмат донасида қояга кўниб, қандайдир уйрн бўйинли сув қушини чангаллари орасига қисиб турган йиртқич куш тасвирланган. Йиртқич куш гўё ўлжасини тилкапора қилмоқчидек ўткир тумшугини унга ўқталган. Унга назар ташлар эканмиз, Фирдавсийнинг шахмат донаси – рух ҳақидаги байти ёдга тушади.

Икки жанговар рух ўтирарди чеккада.
Жигар қони тиркирарди тумшуқларида.

Олимлардан И.А.Орбели ва К.В.Тревер мазкур топилма шахмат донаси бўлимиш рух эканини эътироф этишди. Таассуфки, бу донанинг аниқ археологик санаси маълум эмас, шунинг учун ясалиш услубига кўра, милоннинг VI-VIII асрларига мансуб деб билинди.

Жанубий Тожикистондаги Хуттал Хулбуқа кўҳна пойтахт шаҳрида X аср қатламидан қатий, аниқ услубда ишланган шахмат доналари топилди. Термизда ўтказилган қазиишларда чиққан шахмат доналари эса анча кейинроқ даврга – XV-XVI асрларга тааллуқлидир.

Аммо кўҳна Самарқанд – Афросиёб шахматнинг қадимий доналарига ҳаммадан ҳам бой қиқиб қолди. Бу қадимий обида бамисоли Ўзбекистон халқлари шаҳар маданиятининг улкан архивидан иборатки, олимлар юз йилдан кўпроқ вақт мобайнида унинг замин саҳифаларини тадқиқ қиляпти, Мовароуннахрнинг кўҳна меъморчилиги, моддий ва бадиий маданиятига оид янги-янги ноёб топилмаларни ошкор этишяпти.

Тарихдан сўзловчи топилмалар



Hayotiy voqea



улар филнинг битта тишидан ясалган ва кўп ўйналаверганидан сийқалланиб кетган кўринади.

Бу доналарни катта-кичиклигига кўра уч туркумга ажратиш мумкин. Биринчи туркумга иккита энг кичик дона мансуб бўлиб, уларда бир тиззага бирлашган пиёда жангчилар тасвирланган. Пиёда жангчиларнинг чап кўлида думалок, қиррадор қалқонлар, ўнг кўлида эса елка баравар кўтарилган қисқа, эгик қилич.

Иккинчи туркумдаги доналар йирикроқ, катталиги уч сантиметрча келади. Уларда от ва фил минган жангчилар тасвирланган.

Отлар серҳашам, шокилалар билан безатилган, эгар-жабдуқлари ҳам яққол ифодаланган. Суворийлар оёғига тушадиган совут билан ҳимояланган. Пиёдалар сингари улар ҳам қалқон тутиб олган, кўлларида қилич. Доналар милоннинг VI асридаги шоҳ Хусрав I Парвез тасвирланган сосонийларнинг тош ўймакорлигига яқин услубда ясалган. Чавандоз ортида найза ва ўқдон, чап томонида қилич ва унинг ғилофи осиглик.

Фил донасининг катталиги отчалик келади, боши эгик, ўралган хартуми ерга тегай деб турибди. Унинг бутун танаси жул ёки совут билан ҳимояланган. Қуролланган суворий унинг бошида ўтирибди. Дарвоқе, Варахшадаги машхур монументал безакларда жанговар фил ҳайдовчи ҳам худди шундай тасвирланган эди.

Етти донанинг иккитаси энг катта бўлиб, баландлиги тўрт ярим сантиметр келади. Улардан бири уч от қўшилган извошда ўтирган икки жангчи тасвирдир. Олдиндагиси чап кўлида қалқон ушлаб олган. Орқадаги ўриндиқда – тахтда девкор одам савлат тўкиб ўтирибди. Тахтнинг ўймакор ишланган суянчиги ва тирсак қўяри бўлиб, инжулар билан безатилган. Бу жангчининг ҳам чап кўлида қалқон, ўнг кўлида эса қилич. Тасвирий услуб VII-VIII асрлар санъати

га ниҳоят хос бўлиб, ўша даврда аъёнлар жанговар фил ҳайдовчиларга нисбатан йирикроқ тасвирланарди. Бу доналардаги отлар ҳам ниҳоятда серҳашам безатилган. Эгар-жабдуқлари осма металл безаклар билан гўзаллаштирилган. Бироқ ёллари бўрттириб ишланган, думлари ерга тегиб турибди. Икки йирик донанинг иккинчиси уч от қўшилган извошдаги суворий тасвирдир. Унинг таглиги бошқа доналардагидан катта бўлиб, дуру гавҳарлар билан безатилган. Бошқа доналардан фарқли ўлароқ ундаги суворий қуролланмаган. У бир кўли билан от жилловини ушлаб олган, иккинчи кўлида эса ҳокимлик рамзи – ҳасса ёки гурзи. Шубҳасиз, бу доналар шахмат доналарининг энг йирикларидир, айни вақтда уларнинг бири анча йирик. Бу – фарзин, шоҳнинг маслахатгўйи, дошиммалди. Иккинчиси – салтанат рамзили, қуролсиз, эҳтимол, шоҳ бўлса ажаб эмас.

Бу Афросиёбдан топилган, фил суягидан нафис ишланган митти шахмат доналарининг илк бор кўлга киритилган энг тўла нусхаасидир. Булар чатуранга эмас, балки шоҳ ва фарзинли, от ва пиёдали чинакам шахматдир. Барча доналарнинг реал ифода этилгани санани белгилловчи муҳим омил ҳисобланади. Маълумки, ислом дини тирик мавжудотни тасвирлашни ман этган, шунинг учун ўша даврларда шаклларнинг ўзига хос тез услубланиши рўй берган. Лекин бу топилманинг қимматли жиҳати, унинг биринчи марта аниқ маълум бўлаётганлигидир.

Шахмат доналари комплектида VII аср охири ва VIII асрнинг биринчи ярмида Самарқандда машхур бўлган идиш парчаларигина эмас, балки тангалар ҳам бор эди. Тангалар ўнга яқин. Улар яхши сақланмаган бўлиб, фақат иккитасинигина аниқлаш мумкин бўлди. Ҳар икки танга милоннинг VII аср иккинчи ярмида ўтган Самарқанд амири ал-Ашъаса ибн Яҳё зарбига мансубдир. Уларнинг бирида ҳижрий 144 йил ёзилган бўлиб, бу милоннинг 761 йиллига тўғри келади. Иккинчисиде фақат юзлик ва ўнлик рақами – «бир юз қирқ» сақланган бўлиб, у ҳам биринчи тангага яқиндир. Қолган тангалардаги ёзувларни англаб бўлмади, лекин улар оқоридаги икки тангага ўхшаш. Бинобарин, тангалар ҳам, керамика ҳам, буюмларнинг шакллари ҳам мазкур шахмат доналари исломнинг дастлабки ўн йилликларида қўлланилган. Эҳтимол, улар Самарқанд араблар томонидан забт этилишдан илгари ясалган бўлиши керак, дейиш имконини беради.

Шундай қилиб, кўҳна Афросиёб археологларимизга Ўрта Осиёда энг қадимий, санаси аниқ шахмат доналари комплектини ҳада этдики, бу топилдиқ Самарқанд Мовароуннахрнинг йирик маданий маркази бўлганлигини исботловчи муҳим ашёвий далилдир.

Ю.БУРЁКОВ,
тарих фанлари номзоди.

"Ленин йўли" (ҳозирги "Зарафшон") газетаси,
1977 йил, 25 ноябрь кунги сонидан.

улар филнинг битта тишидан ясалган ва кўп ўйналаверганидан сийқалланиб кетган кўринади.

Бу доналарни катта-кичиклигига кўра уч туркумга ажратиш мумкин. Биринчи туркумга иккита энг кичик дона мансуб бўлиб, уларда бир тиззага бирлашган пиёда жангчилар тасвирланган. Пиёда жангчиларнинг чап кўлида думалок, қиррадор қалқонлар, ўнг кўлида эса елка баравар кўтарилган қисқа, эгик қилич.

Иккинчи туркумдаги доналар йирикроқ, катталиги уч сантиметрча келади. Уларда от ва фил минган жангчилар тасвирланган.

Отлар серҳашам, шокилалар билан безатилган, эгар-жабдуқлари ҳам яққол ифодаланган. Суворийлар оёғига тушадиган совут билан ҳимояланган. Пиёдалар сингари улар ҳам қалқон тутиб олган, кўлларида қилич. Доналар милоннинг VI асридаги шоҳ Хусрав I Парвез тасвирланган сосонийларнинг тош ўймакорлигига яқин услубда ясалган. Чавандоз ортида найза ва ўқдон, чап томонида қилич ва унинг ғилофи осиглик.

Фил донасининг катталиги отчалик келади, боши эгик, ўралган хартуми ерга тегай деб турибди. Унинг бутун танаси жул ёки совут билан ҳимояланган. Қуролланган суворий унинг бошида ўтирибди. Дарвоқе, Варахшадаги машхур монументал безакларда жанговар фил ҳайдовчи ҳам худди шундай тасвирланган эди.

Етти донанинг иккитаси энг катта бўлиб, баландлиги тўрт ярим сантиметр келади. Улардан бири уч от қўшилган извошда ўтирган икки жангчи тасвирдир. Олдиндагиси чап кўлида қалқон ушлаб олган. Орқадаги ўриндиқда – тахтда девкор одам савлат тўкиб ўтирибди. Тахтнинг ўймакор ишланган суянчиги ва тирсак қўяри бўлиб, инжулар билан безатилган. Бу жангчининг ҳам чап кўлида қалқон, ўнг кўлида эса қилич. Тасвирий услуб VII-VIII асрлар санъати

га ниҳоят хос бўлиб, ўша даврда аъёнлар жанговар фил ҳайдовчиларга нисбатан йирикроқ тасвирланарди. Бу доналардаги отлар ҳам ниҳоятда серҳашам безатилган. Эгар-жабдуқлари осма металл безаклар билан гўзаллаштирилган. Бироқ ёллари бўрттириб ишланган, думлари ерга тегиб турибди. Икки йирик донанинг иккинчиси уч от қўшилган извошдаги суворий тасвирдир. Унинг таглиги бошқа доналардагидан катта бўлиб, дуру гавҳарлар билан безатилган. Бошқа доналардан фарқли ўлароқ ундаги суворий қуролланмаган. У бир кўли билан от жилловини ушлаб олган, иккинчи кўлида эса ҳокимлик рамзи – ҳасса ёки гурзи. Шубҳасиз, бу доналар шахмат доналарининг энг йирикларидир, айни вақтда уларнинг бири анча йирик. Бу – фарзин, шоҳнинг маслахатгўйи, дошиммалди. Иккинчиси – салтанат рамзили, қуролсиз, эҳтимол, шоҳ бўлса ажаб эмас.

Бу Афросиёбдан топилган, фил суягидан нафис ишланган митти шахмат доналарининг илк бор кўлга киритилган энг тўла нусхаасидир. Булар чатуранга эмас, балки шоҳ ва фарзинли, от ва пиёдали чинакам шахматдир. Барча доналарнинг реал ифода этилгани санани белгилловчи муҳим омил ҳисобланади. Маълумки, ислом дини тирик мавжудотни тасвирлашни ман этган, шунинг учун ўша даврларда шаклларнинг ўзига хос тез услубланиши рўй берган. Лекин бу топилманинг қимматли жиҳати, унинг биринчи марта аниқ маълум бўлаётганлигидир.

Шахмат доналари комплектида VII аср охири ва VIII асрнинг биринчи ярмида Самарқандда машхур бўлган идиш парчаларигина эмас, балки тангалар ҳам бор эди. Тангалар ўнга яқин. Улар яхши сақланмаган бўлиб, фақат иккитасинигина аниқлаш мумкин бўлди. Ҳар икки танга милоннинг VII аср иккинчи ярмида ўтган Самарқанд амири ал-Ашъаса ибн Яҳё зарбига мансубдир. Уларнинг бирида ҳижрий 144 йил ёзилган бўлиб, бу милоннинг 761 йиллига тўғри келади. Иккинчисиде фақат юзлик ва ўнлик рақами – «бир юз қирқ» сақланган бўлиб, у ҳам биринчи тангага яқиндир. Қолган тангалардаги ёзувларни англаб бўлмади, лекин улар оқоридаги икки тангага ўхшаш. Бинобарин, тангалар ҳам, керамика ҳам, буюмларнинг шакллари ҳам мазкур шахмат доналари исломнинг дастлабки ўн йилликларида қўлланилган. Эҳтимол, улар Самарқанд араблар томонидан забт этилишдан илгари ясалган бўлиши керак, дейиш имконини беради.

Шундай қилиб, кўҳна Афросиёб археологларимизга Ўрта Осиёда энг қадимий, санаси аниқ шахмат доналари комплектини ҳада этдики, бу топилдиқ Самарқанд Мовароуннахрнинг йирик маданий маркази бўлганлигини исботловчи муҳим ашёвий далилдир.

Ю.БУРЁКОВ,
тарих фанлари номзоди.

"Ленин йўли" (ҳозирги "Зарафшон") газетаси,
1977 йил, 25 ноябрь кунги сонидан.

Yaqinda sayohatga chiqqandim. Yo'lda hamroh bo'lgan kishi bilan suhbatlashib olddik. Boshida oddiy gaplar — ish, oila, hayot haqida. Keyin u bir lahza jim bo'lib qoldi. Uzoqqa tikilib, “Bilasizmi, men ham odam bo’ldim... Lekin juda kech”, deya so’zini davom ettirdi.

“Qimorboz”ning ko‘z yoshi yoxud qayta topilgan baxt



— Aka, nega bunday deyapsiz? — so'radim hayron bo'lib.

— E, uka, hayotimni kino qilsa bo'ladi, — deb kulimsiradi-da, dilidagini to'kib soldi.

— Maktabda ikkichi edim. O'qishga ham, ishgа man ishtiyοiqim yo'q edi. Ustozlarim va ota-onam ham mengа katta umid bog'lashmagan. Bir kuni bekorchilikdan bir davrada qimor o'yiniga aralashib qoldim. Boshida omadim zo'r keldi. Ko'p o'tmay, tirikchiligim shu o'yingа bog'landi. Qimor mengа pul, mashina berdi. Bir qarashda hayotim izga tushgandek edi. Ammo o'sha "omad" aslida halokat eshigining kaliti ekanini bilmasdim.

Suhbatdoshimning bu gapidan so'ng uning hayotida qandaydir fojia yuz bergan bo'lsa kerak, deb o'yladim.

— Keyin nima bo'ldi? — dedim garchi gapim noo'rin bo'lsa ham.

— Yillar o'tdi. Qimor illatga, ichkilik va chekish esa odatga aylandi. Ko'chada yuz ko'rsatish uyat bo'ldi — qarз, urush-janjal, mahalla-ko'y oldida ota-onam bosh ko'tara olmasdi. Qarzimni to'lash uchun bor budini sotardi. "Balki uylansa to'g'ri yo'lga kirar", deb o'ylashdi. Uylandim, farzand ko'rdim, ammo o'zgaromadim. Oilam meni tashlab ketdi. Qizig'i, o'sha paytda ham o'zimni oqlashga harakat qilardim. "Hayot shunday", derdim. Aslida hayot bunday emas ekan. Men hayotni buzgan ekanman.

Bir kuni tong saharda butun qishloqni larzaga solgan xabar keldi: 4-sinf o'quvchisi o'zini osibdi. Shifoxonaga olib ketishgan. Keyin bilsam, bu mening bolam ekan.

Ko'ziga yosh olgan suhbatdoshimni tinglar ekanman, undan nafratlanishni ham, tasalli berishni ham bilmasdim.

— "Qimorbozning o'g'li" degan laqab, masxara, nafrat bolamning kichik yuragiga sig'magan, — dedi hamrohim ko'z yoshini artib. — U esa mendan farqli o'laroq vijdonli ekan. Allohga shukrki, o'g'limning joni omon qoldi.

Oradagi sukunatdan so'ng suhbatdoshimdan so'radim:

— Oilangiz bilan yarashtiringizmi?

— Ha. Ulardan kechirim so'rab, uyga qaytardim. Qimorni, ichkilikni butunlay tashladim. Xorijda ishlab, qarzarlarimni uzdim. Bugun bu yoqalarning hammasi o'tmishda qoldi. Hozir oilam yonimda, farzandim maktabda eng zo'rlardan. Muhimi, men endi insonman.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

